

Akril tola - Yangi O‘zbekistonda yangi yo‘nalish



Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoro viloyati Kogon tumanidagi “Siyovush tekstil” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Bu joy ilgari unumsiz, bo‘sh turgan maydon edi. Tadbirkorlarga sharoit yaratish maqsadida hudud “G‘ijduvon” erkin iqtisodiy zonasiga kiritilib, zarur infratuzilma tortilgach, bu yerda sanoat vujudga keldi.

Xususan, “Siyovush tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 36 million dollarlik loyihasi o‘tgan oyda ishga tushdi. Unda yiliga 40 ming tonna akril ip-kalava yigirish quvvati va 600 ta ish o‘rni yaratildi.

- Bu Yangi O‘zbekistondagi yangi yo‘nalish, - dedi Shavkat Mirziyoyev. - Yurtimizda to‘qimachilik sanoati rivojlanyapti. Agar korxonalar qo‘shilgan qiymat yaratib, daromadini oshiraman desa, qisman akril ishlatishiga to‘g‘ri keladi. Undan tayyorlangan mahsulot qiymati 5 barobar oshadi. Bu - manfaatdorlik, barqarorlik, odamlarga ish o‘rni, degani. Shuning uchun davlat paxtani qayta ishlashga qancha ko‘makdosh bo‘lgan bo‘lsa, endi sun‘iy tola ishlab chiqarishga ham shunday yordam beradi.

Hozirgi korxonaning birinchi bosqichi bo‘lib, ayni paytda xorijlik hamkorlar bilan korxonaning faoliyatini kengaytirish ustida ish olib borilmoqda. Rejaga ko‘ra, keyingi bosqichda akril tola hamda undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish to‘liq mahalliyashtiriladi. Jami ish o‘rni soni 1 ming 200 taga yetadi.



Manba